



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Габдуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



KICHIK BIZNESNING XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA DUCH KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLARI

Sultonov Shodiyor Abduhalilovich

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЮТСЯ МАЛЫЕ ПРЕДПРИЯТИЯ В СЕКТОРЕ УСЛУГ

Султанов Шодиёр Абдухалилович

MAIN PROBLEMS SMALL BUSINESSES FACED IN THE SERVICE SECTOR

Sultanov Shodiyor Abdukhalilovich

Received: March 5, 2026 Revised: March 9, 2026 Accepted: March 12, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes sub'yektlarining xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritish jarayonida duch kelayotgan asosiy muammolari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayniqsa kichik biznes sub'yektlari ushbu sektorning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan institusional, moliyaviy va infratuzilmaviy omillar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xizmat ko'rsatish sohasi, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy resurslar, institusional muhit.

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются субъекты малого бизнеса в процессе осуществления деятельности в сфере услуг, а также их влияние на экономическое развитие. Сфера услуг является важной составной частью современной экономики, и особенно субъекты малого бизнеса выступают основными участниками данного сектора. В ходе исследования были проанализированы институциональные, финансовые и инфраструктурные факторы, препятствующие развитию малого бизнеса в сфере услуг.

Ключевые слова: малый бизнес, сектор услуг, предпринимательская деятельность, экономическое развитие, инфраструктура, цифровая экономика, финансовые ресурсы, институциональная среда.

Abstract: This article analyzes the main problems faced by small business entities in the process of operating in the service sector and their impact on economic development. The service sector is an important component of the modern economy, and small business entities are the main participants in this sector. During the research, institutional, financial, and infrastructural factors hindering the development of small businesses in the service sector were analyzed.

Keywords: small business, service sector, entrepreneurial activity, economic development, infrastructure, digital economy, financial resources, institutional environment.

■ KIRISH

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xizmat ko'rsatish bozorining asosiy ishtirokchilari sifatida iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan kichik biznes sub'yektlarining xizmat

ko'rsatish sohasidagi faoliyatini rivojlantirish va ularning iqtisodiy salohiyatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik



faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmini oshirish hamda kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan[1].

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'yektlari o'z faoliyati davomida bir qator iqtisodiy, institutsional va tashkiliy muammolarga duch kelmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, xizmat ko'rsatish infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar hamda malakali kadrlar etishmasligi ushbu sohaning samarali rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda[2]. Shu bilan birga, xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayib borishi ham kichik biznes sub'yektlaridan yangi boshqaruv yondashuvlarini talab qilmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida uning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini, ularning faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar hamda mavjud muammolar tahlil qilingan[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish hamda tadbirkorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjatlarda kichik biznesning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirishdagi muhim o'rnini alohida ta'kidlangan[4].

Q.X. Abdurahmonovning ilmiy ishlarida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rivojlanish omillari hamda tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Muallif kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini qayd etadi[5].

A.V. Vahobov va T.T. Jo'rayevlarning ilmiy tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, uning rivojlanish tendensiyalari hamda kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Mualliflar xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar, infratuzilma hamda zamonaviy boshqaruv usullarining muhimligini ta'kidlaydilar[6].

S.S.G'ulomov va A.A.Rasulovlarning ilmiy ishlarida kichik biznes subyektlari faoliyatida uchraydigan asosiy muammolar, jumladan moliyaviy resurslarga etishmovchilik, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, malakali kadrlar etishmasligi hamda ayrim hududlarda infratuzilmaning

etarli darajada rivojlanmaganligi kabi masalalar ko'rib chiqilgan[6].

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda ham kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasida duch keladigan muammolari keng o'rganilgan. Jumladan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash muhim omillar sifatida qayd etilgan[7].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes sub'yektlarining xizmat ko'rsatish sohasida duch kelayotgan asosiy muammolarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini takomillashtirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasida duch keladigan asosiy muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish maqsadida turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu manbalarni o'rganish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini, rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud muammolari aniqlab olindi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez usullaridan keng foydalanildi. Tahlil usuli yordamida kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy omillar o'rganildi. Sintez usuli orqali esa olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, muammolar va ularning echimlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil usuli ham qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi statistika organlarining rasmiy ma'lumotlari asosida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni, ularning iqtisodiyotdagi ulushi hamda rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Bundan tashqari, taqqoslash usuli yordamida turli yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar solishtirilib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning rivojlanish tendensiyalari aniqlab olindi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy umumlashtirish usuli ham qo'llanilib, olingan natijalar asosida kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasida duch keladigan muammolarni bartaraf etish hamda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatining rivojlanishi va ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy tizimdagi o'rnini, ularning faoliyatiga ta'sir etuvchi institutsional omillar hamda



xizmatlar bozorining rivojlanish qonuniyatlarini turli nazariy yondashuvlar asosida yoritib beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim S.S.G'ulomov o'zining "Tadbirkorlik asoslari" nomli ilmiy asarida kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni keng tahlil qilgan. Muallif kichik biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, soliqlik yukining ayrim holatlarda yuqoriligi hamda tadbirkorlik infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatib o'tadi[8].

Mazkur masala iqtisodchi olim A.O.O'lmasov tomonidan yozilgan "Iqtisodiyot asoslari" nomli ilmiy asarda ham o'z aksini topgan. Muallif xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va kichik biznes faoliyatining rivojlanish omillarini tahlil qilib, ushbu sektorning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan bozor infratuzilmasining rivojlanganligi va tadbirkorlik muhitining barqarorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi[9].

Shu bilan birga, iqtisodchi olim N.Q.Jo'rayev o'zining "Milliy iqtisodiyot rivojlanishining nazariy asoslari" nomli ilmiy asarida kichik biznes faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, kichik biznes sub'yektlarining samarali faoliyat yuritishi iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantiradi, ammo moliyaviy resurslar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ushbu sektor rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi[10].

Mazkur yondashuv iqtisodchi olim M.Sharifxo'jayev tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Uning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" nomli ilmiy ishida kichik biznes rivojlanishidagi asosiy muammolar sifatida moliyaviy resurslar etishmovchiligi, tadbirkorlik infratuzilmasining sust rivojlanganligi hamda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion texnologiyalarning etarli darajada joriy etilmaganligi qayd etilgan[11].

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda ham kichik biznes faoliyatining rivojlanishidagi muammolar keng o'rganilgan. Xususan, iqtisodchi olim Maykl Porter o'zining "Competitive Advantage of Nations" asarida kichik biznes sub'yektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyalar, samarali boshqaruv va rivojlangan bozor infratuzilmasi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi[12].

Shuningdek, Filip Kotler xizmat ko'rsatish bozorining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan mijozlarga yo'naltirilgan xizmat modeli va marketing strategiyalarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqligini ko'rsatib beradi[13].

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida muhim iqtisodiy omil bo'lsa-da, uning samarali faoliyat yuritishiga turli iqtisodiy va institutsional muammolar ta'sir ko'rsatadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasida duch kelayotgan muammolari, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi iqtisodiy omillar bilan bog'liq masalalar etarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasida duch

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

kelayotgan asosiy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishning samarali iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan bo'lsa-da, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'yektlari bir qator iqtisodiy va tashkiliy muammolarga duch kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 500 trillion so'mdan ortiqni tashkil etgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 46 foizga yaqinni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sektorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi, biroq ushbu o'sish kichik biznes faoliyatida mavjud muammolarni to'liq bartaraf etilganini anglatmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim muammolardan biri moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi hisoblanadi. Ko'plab kichik biznes sub'yektlari o'z faoliyatini kengaytirish yoki yangi xizmat turlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari uchun kredit ta'minoti va garov masalalari muhim to'siqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur muammoga qo'shimcha ravishda xizmat ko'rsatish sohasida infratuzilma va logistika tizimining etarli darajada rivojlanmaganligi ham kichik biznes faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda savdo, transport, logistika va raqamli xizmatlar infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi xizmatlar bozorining kengayishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat, onlayn xizmatlar, fintech texnologiyalari hamda IT-platformalarning rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasida muhim rol o'ynayotgan bo'lsa-da, kichik biznes sub'yektlarining hammasi ham ushbu texnologiyalardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi kichik biznes faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishiga qaramay, ushbu sektorda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, biznes infratuzilmasining hududlar kesimida notekis rivojlanganligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi hamda xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayishi kichik biznes faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion boshqaruv yondashuvlari, zamonaviy biznes modellarining joriy etilishi hamda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishga bog'liq.



Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- raqamli biznes ekotizimini rivojlantirish;
- startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ventchur kapitalni rivojlantirish;
- hududiy servis infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- tadbirkorlar uchun servis menejmenti va biznes boshqaruvi bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish;
- innovasion xizmat turlari va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish hamda bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Mazkur soha iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari qator muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, moliyaviy resurslarga etarli darajada ega bo'lmalik, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, malakali kadrlar etishmasligi hamda ayrim hududlarda infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohaning rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadbirkorlar uchun yaratilayotgan qulay biznes muhiti, soliq imtiyozlari hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznes faoliyatini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Kelajakda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli xizmatlar ulushini oshirish, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Sultonov Shodiyor Abduhalilovich Samarqand iqtisodiyot va servis institute mustaqil izlanuvchisi / Султанов Шодиёр Абдухалилович Самаркандский институт экономики и сервиса, независимый исследователь / Sultanov Shodiyor Abdukhaliilovich Samarkand Institute of Economics and Service, independent researcher

E-mail: shodiyorsultonov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-9707-1426

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. - Toshkent, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". - Toshkent, 2022.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-son Farmoni "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". - Toshkent, 2016.

4. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2012-yil 2-may.

5. Abdug'aniyev Q.X. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. - 320 b.

6. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik asoslari: o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2017. - 280 b.

7. Jo'rayev N.Q. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining nazariy asoslari: monografiya. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. - 280 b.

8. O'lmasov A.O. Iqtisodiyot asoslari: darslik. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018. - 300 b.

9. Sharifxo'jayev M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2016. - 240 b.

10. Kotler P., Keller K. Marketing Management. - 15th ed. - Harlow: Pearson Education Limited, 2016. - 714 p.

11. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1998. - 896 p.

12. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. - Toshkent, 2024. - URL: <https://stat.uz>

13. <https://data.worldbank.org>

14. <https://www.theglobaleconomy.com>



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz